

5-sinf ona tili. 7-BSB. (25 ball)

Topshiriqli diktant

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- diktant matnini imlo qoidalarini hamda husnixatga rioya qilgan holda yozing;
- tinish belgilarni to'g'ri qo'llang;
- matndagi murakkab so'zlarning imlosini eslab, to'g'ri yozing.

Diktant matni namunasi:

U besh yil avval qayerdandir mashina urib ketgan kuchukchani topib oldi. Uning yashab ketishiga umid yo'q edi. Doktor chalajon jonivorga qanday yordam berishni bilmasdi. Biz ham kuchukchaga achinib qarar edik. Biroq Matilda kuchukcha sog'ayib ketishiga ishonar va umidini uzmas edi. Jonivor egasidan ko'ngil uzolmay yashab ketdi va hozir siz kuchukchani ko'rsangiz, aslo tanimaysiz, hayratdan yoqa ushlaysiz.

O'tgan yili Matildaning bedavo dardga chalingani ma'lum bo'ldi. Egasining har kungi betinim azoblari, kasallikning dahshatli xurujlari kuchukni ancha sergaklantirib qo'ydi. Sodiq do'st xuruj boshlanishini egasidan burun sezadi va unga yordam berish choralari ilgaridan ko'rishga intiladi. Matilda jonivorning harakatlaridan xuruj boshlanayotganini sezib, hushdan ketmasidan burun doktorga qo'ng'iroq qiladi.

Kuchukcha bir bora hayotini saqlab qolgan insonning hayotini har kuni saqlab qoladi.

(95 ta so'z)

I Matnni baholash mezonini (15 ball)

Matnni baholash mezonini (15 ball)		1 ta	2 ta	3-4 ta	5-7
Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball
Tinish belgilari	3 ball	3 ball	2 ball	1 ball	
Husnixat	2 ball				
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa –	2 ball				
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish	1 ball				

biroz qiyin bo'lsa –					
JAMI:	15 ball				

II. Berilgan topshiriqlarni bajaring (10 ball)

1. Berilgan parchadan olmoshlarni aniqlab, ularni ma'no turiga ko'ra ajratib yozing. **(4 ball)**

U besh yil avval qayerdandir mashina urib ketgan kuchukchani topib oldi. Uning yashab ketishiga umid yo'q edi. Doktor chalajon jonivorga qanday yordam berishni bilmasdi. Biz ham kuchukchaga achinib qarar edik. Biroq Matilda kuchukcha sog'ayib ketishiga ishonar va umidini uzmas edi. Jonivor egasidan ko'ngil uzolmay yashab ketdi va hozir siz kuchukchani ko'rsangiz, aslo tanimaysiz, hayratdan yoqa ushlaysiz.

2. Gaplardan ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularni bog'lanib kelgan so'z(lar)i bilan birga yozing. **(4 ball)**

1. U ***besh yil avval*** qayerdandir mashina urib ketgan kuchukchani topib oldi.
2. Doktor chalajon ***jonivorga*** qanday yordam berishni bilmasdi.
3. Biz ham ***kuchukchaga*** achinib qarar edik.
4. O'tgan yili ***Matildaning*** bedavo dardga chalingani ma'lum bo'ldi.
5. Sodiq do'st ***xuruj boshlanishini*** egasidan burun sezadi.

3. Iboralarning ma'nolarini izohlang. **(2 ball)**

- 1) umidini uzmoq –
- 2) ko'ngil uzmoq –
- 3) yoqa ushlamoq –

Baholash mezonlari (10 ball)	
1.Olmoshlarning ma'no turlarini aniqlay olishi	4 ball
Matndagi olmoshlarni aniqlab, ularni ma'no turi bo'yicha to'g'ri ajratgan bo'lsa –	4 ball
Matndagi olmoshlarni aniqlay olgan, ammo turlarga ajratishda chalkashliklar kuzatilgan bo'lsa –	3 – 2 ball
Matndagi olmoshlarni aniqlagan, lekin ma'no turiga ko'ra ajratmagan bo'lsa –	1 ball
2. Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlay olishi	4 ball
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ular bog'lanib kelgan so'zlarni to'g'ri aniqlab yozgan bo'lsa –	4 ball
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ammo ular bog'lanib kelgan so'zni aniqlashda chalkashliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	3 – 2 ball

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berishda hamda ular bog'lanib kelgan so'zni aniqlashda chalkashliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	1 ball
3. Iboralarning ma'nolarini izohlay olishi	2 ball
Berilgan iboralarning ma'nolarini imlo qoidalariga amal qilgan holda to'liq va to'g'ri izohlay olgan bo'lsa –	2 ball
Berilgan iboralarning ma'nolarini yozishda hamda imlo qoidasiga muvoviq yozishda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	1 ball
Jami: –	10 ball